

Tolibjon BABAYEV,

O'zbekiston davlat jahon tillari unviytersiti mustaqil tadqiqotchisi

Tel.: +998 97 751 90 35

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, f.f.d. A.Q.Qodirov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF DIALOGUE WITH THE PEOPLE IN THE SYSTEM OF POLITICAL COMMUNICATIONS

Annotation

This scientific article analyzes the system of communication with the people in Uzbekistan, its formation and features. Based on the theory of political communication, the foundations, principles and tasks of this factor are revealed. Practical implications have been developed based on scientific analysis and theoretical approaches.

Key words: Dialogue with the people, political communication, New Uzbekistan, reforms, democracy, socio-political activities.

РАЗВИТИЕ ДИАЛОГА С НАРОДОМ В СИСТЕМЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ КОММУНИКАЦИЙ

Аннотация

В данной научной статье анализируется система общения с народом в Узбекистане, ее формирование и особенности. На основе теории политической коммуникации раскрываются основы, принципы и задачи этого фактора. Практические выводы были разработаны на основе научного анализа и теоретических подходов.

Ключевые слова: Диалог с народом, политическая коммуникация, Новый Узбекистан, реформы, демократия, общественно-политическая деятельность.

SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA XALQ BILAN MULOQOTNING RIVOJI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda xalq bilan muloqot tizimi, uning shakllanishi va o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Siyosiy kommunikatsiya nazariyasi asosida ushbu omilning asoslarini, tamoyil va vazifalari ochib berilgan. Ilmiy tahlil va nazariyo yondashuvlar asosida amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Xalq bilan muloqot, siyosiy kommunikatsiya, Yangi O'zbekiston, islohotlar, demokratiya, ijtimoiy-siyosiy faoliy.

Kirish. Mustaqillik yillarda O'zbekiston o'z oldiga strategik vazifa sifatida qo'ygan kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida normativ-huquqiy baza hamda institusional asoslar shakllanib bormoqda. Shu o'rinda fuqarolik jamiyatni institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiylari va ommoviy axborot vositalarining jamiyatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtiroki ham kuchaymoqda. Mazkur jarayonda esa 2016 yil 28 dekabrda qabul qilingan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bu borada yangi davrni, ta'bir joyiz bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi deyishimiz mumkin.

Bu borada fuqarolar murojaatlari tizimini yanada yaxshilash masalasi dolzarb masala sifatida turibdi. Murojaat – bu fuqarolarning davlat xokimiyati organlariga yo'llaydigan huquqiy akti hisoblanadi. Har bir fuqaro xokimiyat tashkilotlariga murojaat qilar ekan (ariza, shikoyat yoki takliflar bilan) u bevosita davlat organlari bilan muloqotga kirishadi.

Jamiyatda fuqarolar murojaatining ahamiyati juda katta. Murojaatlар o'z hususiyatiga ko'ra uchta funksiyani bajaradi. Birinchidan, murojaat, eng avvalo, jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, fuqarolarning murojaati – bu Konstitusiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan har bir shaxsnинг jamiyat va davlat ishlardagi bevosita ishtirokini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Uchinchidan, fuqarolar murojaati – bu davlat xokimiyati tomonidan olib borilayotgan siyosatga nisbatan xalqning fikri, muloxazasi hamda jamiyatda "qayta aloqa" tizimining samarali ishlashidir.

Mazkur sohaning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy jarayonlarda fuqarolar murojaatini, ularning xohish-istiklaklarini to'la anglab yetish hamda shunga asosan davlat organlari faoliyatini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Xalq murojaatlari bilan ishlash tizimi ham bir nechta tashkiliy-institusional jihatlarni qamrab oladi. Masalan, fuqaro tomonidan bildirilayotgan muammomi bilish, anglab yetish, masalani tahlil qilish, muammo bo'yicha yechim topish va faoliyatni monitoring qilib borish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Agarda masalaning tarixiy ildizlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatimiz hududida taraqqiy etgan bir qancha saltanatlar ijtimoiy-siyosiy boshqaruvida xalq bilan muloqot va fuqarolarning murojaatlari bilan shug'ullanish tizimlari mavjud bo'lganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, Somoniylar davlatida raiyat bilan ishlash va ularni qabil qilish borasida alohida Devon tashkil qilingan bo'lib uning vazifalari xalqning murojaatlarini ijobiy tarzda hal qilish bo'lgan. Amir Temur davlat boshqaruvida ham xalq bilan bevosita aloqa qilishga, ularni qiyayotgan muammollarni bartaraf etishga alohida e'tibor berilgan. "Amr qildimki, har yerda, viloyatu shahar va lashkar o'rdsida kundalik voqealarni yozuvchilarini tayin qilsinlarki, raiyat ahvoli, kayfiyati va xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin"[1], deya takidlaydi Sohibqiron Amir Temur. "Dono vazir xar doim o'z mamlakati fuqarolarining bahti, farovonligi haqida qayg'urishi lozim"[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Shundan ko'rib turibdiki, aholining murojaatlari bilan ishlash va ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish tizimi uzoq tarixga borib taqaladi. Mustaqillik yillarda xalq bilan ishlash va ularni murojaatlarni tahlil qilib borish yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada normativ-huquqiy asoslar yaratildi. Shular jumlasiga, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiysi, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda 2016 yilning 28 dekabr kuni qabul qilingan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini alohida takidlashimiz lozim.

Mazkur huquqiy asoslarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizning butun xududida "xalq qabulxonalarini" tashkil qilindi. Shuni alohida takidlashimiz lozimki, "...aholining eng dolzarb muammolarini hal etish imkonini beruvchi, davlat hokimiyyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari, barcha darajadagi hokimiyatlar bilan fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmini"[3] yaratish xalq qabulxonalarining asosiy vazifasiga aynaishi lozim. Bundan tashqari, davlat xokimiyyati organlarining virtual qabulxonalarini ham faoliyat olib bormoqda. Mazkur qabulxonalarga kelib tushgan xar bir murojaat o'rganilib, tahlili qilinib boriladi va ijobjiy yechimi bo'yicha monitoring ishlari olib boriladi. Bir so'z bilan aytganda, "Xalq dalat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga hizmat qilishi kerak"[4].

Shuning bilan birga, Respublikamizda xalq murojaatlari bilan ishslashda parlamentning rolini oshirishga alohida urg'u berib kelimoqda. "Parlament so'rovi", "deputatlik so'rovi", "parlament eshituvii" kabi siyosiy-huquqiy vositalardan foydalanish amaliyoti kengayib bormoqda. Partiyalar va bevosita deputatlik korpusi vakillarining o'z elektorati bilan ishslash tizimi takomillashmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar va siyosiy modernizatsiya jarayonlariga "elektron hukumat" tizimini joriy qilish amaliyotlari ham kengayib bormoqda. Bunda ayniqsa kichik biznes va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, aholini manzilli ijtimoiy himoya bilan ta'minlash va jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish omillariga alohida etibor berilmoqda.

Shuni takidlashimiz lozimki, jamiyat bilan davlat o'rtasida, xalq bilan mansabdar shaxslar o'rtasidagi tom ma'nodagi samarali aloqalar tizimini yo'lga qo'yishda fuqarolar murojaatlari bilan ishslash tizimi va xalq qabulxonalarining roli va ahamiyati juda katta. 2017 yilni mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishi ham aynan shu maqsadlarlar yo'lida qilingan eng katta qadam bo'lishi shubhasizdir.

Konstitusiyamizning 2-moddasida quyidagi so'zlar bitilgan: "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"[5]. Darhaqiqat, mamlakatimizning mustaqil yo'li xalq hokimiyyatning birdan-bir manbai, kuch-qudrati, ijodkori va yagona bunyodkori ekanini amalda yana bir bor isbotladi.

Lekin yaqin o'tmishda xalq bilan davlat idoralari, oddiy fuqarolar bilan mansabdarlar o'rtasida uzilish paydo bo'lgani, o'zaro ishonchsizlik tomir yoygani hech kimga sir emas. Bu salbiy holat yurtimiz taraqqiyotiga to'g'anoq bo'la boshladi. Shu bois Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishi bilanoq ana shu masalaga jiddiy e'tibor qaratdi. 2016 yil 28 dekabrda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash bo'yicha Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini va virtual qabulxonasi fuqarolar bilan mutasaddi idoralarni bog'lovchi tizimga aylandi. Bu yo'nalishda keng qamrovli boshqa ko'plab ishlar ham amalga oshirildi. Say-harakatlar kutilgan ijobjiy natijalarni berdi. Davrning shiddat bilan ilgarilashi esa mazkur tizim oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'yamoqda. Binobarin, bu jabhoni ham takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Davlatimiz rahbari odamlarni murojaat qilishga majbur etayotgan muammolarni mahallaning o'zida bartaraf qilish kerakligini doimo takrorlab keladi. Buning uchun viloyat, tuman va shahar hokimlari bir haftada ikki kunni fuqarolarni qabul qilishga ajratishi, shuningdek, hokimliklarda kunlik qabul yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Prezidentimiz har bir hokimning kabineti "xalq qabulxonasi" bo'lishi, murojaatlarni ko'rib, nimalarga e'tibor qilish bo'yicha har bir rahbarning strategiyasi bo'lishi kerakligiga urg'u berib keladi. Aholi to'g'ridan-to'g'ri tunu kun murojaat qilishi uchun hokimlarning virtual qabulxonasi va ijtimoiy tarmoqlarda alohida sahifalarini tashkil etish vazifasi qo'yildi. Doimiy ravishda aholi bilan muloqot tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab aniq chora-tadbirlar ham belgilab berilmoqda.

Shu o'rinda jonli muloqotni tashkil etishda siyosiy partiyalar bugun juda katta kuch va imkoniyatlarga ega ekanini qayd etish zarur. Siyosiy partiyalar nafaqat o'z elektorati, balki ko'makka muhtoj barcha fuqarolar manfaatini himoya qilish uchun butun salohiyatini ishga solishi talab etiladi. Bu esa natijada partiyani qo'llab-quvvatlovchilar, dasturiy g'oya va maqsadlariga xayriyohlik bildirayotganlar tobora oshishiga olib keladi. Vaholanki, demokratik qadriyatlar va fuqarolik jamiyat qonuniyatiga ko'ra xalq bilan davlat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini aynan siyosiy partiyalar o'tab berishi zarur[6].

Xulosa va takliflar. Yangi O'zbekiston barpo etishning asosiy mezoni, avvalo, jamiyat va davlat hayotida fuqarolar va boshqaruv institularining o'ziga xos birdamligi, barqaror va konstruktiv muloqotga asoslangan fuqarolik jamiyatining barcha xususiyatlarini o'zida mujassam etishi bilan bog'liq. Bunda milliy va tarixiy xususiyatlar, umuminsoniy qadriyatlar hamda fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyati darajasi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashning asosiy sharti turli siyosiy institular yordamida amalga oshiriladigan siyosiy kommunikatsiya alohida o'rinn tutadi. Ma'lumki, yangi jamiyatlarni barpo etish hamda siyosiy modernizatsiya jarayonlarining samarasи: 1) fuqarolarning siyosiy faoliygini va siyosiy madaniyati darajasini yuksaltirish; 2) mamlakatda ta'lim sifatini, aholi savodxonligi darajasini oshirish va umuman ma'rifatli jamiyatni yaratish; 3) mavjud siyosiy institutlar faoliyati va faoliygi orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar jarayonida prezidentning xalq qabulxonalarini fuqarolar murojaatlarni ko'rib chiqish hamda jamiyat va davlat o'rtasida o'zaro kommunikatsiyani o'rnatish bo'yicha samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Unda barcha davlat hokimiyyati va boshqaruvni organlarining xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, joylardagi fuqarolarning dolzarb muammolarini o'z vaqtida aniqlash va tezkor hal qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirilmoqda va nazorat qilib borilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda xalq qabulxonalarini mamlakat fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari kafolati sifatida prezident vakolatlarini amalga oshirishda barcha hokimiyyat bo'g'inlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan o'zaro aloqalarini ta'minlashning samarali va kuchli vositasiga aylandi. Aytish joizki, davlat organlari va aholi o'rtasida samarali strategik kommunikatsiya kanallarining mavjudligi demokratik huquqiy davlatning muhim ko'rsatgichi hamda davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim shartidir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Jamoatchilik palatasi tashkil etilganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Ushbu tashabbus O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish, mamlakatni dunyoga ochish, boshqaruvning demokratik tizimlarini joriy etishda fuqarolik jamiyatni ishtirokini oshirish, jamoatchilik nazoratini ta'minlash borasida olg'a tashlangan yana bir muhim qadamdir.

Jamoatchilik palasati faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri O'zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlanish maqsadida davlat, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi samarali muloqotni yo'lga qo'yishdan; meyoriy hujjatlar tayyorlashda ishtirok etish, xususan, meyoriy-huquqiy hujjatlarning ijtimoiy ekspertizasini o'tkazish; jamoatchilik nazoratining jumladan, jamoatchilik monitoringini samarali tizimini shakllantirishdan iboratdir. Buni iste'molchilar huquqini himoya qilish sohasidagi samarali siyosatning asosiy tarkibiy qismidir.

Istiqbolda esa ushbu tizimni yanada rivojlantirish, uning institusional va tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash ziarurati mavjud. Ushbu platforma orqali tom ma'nodagi jamiyatimizda siyosiy kommunikatsiya va konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yish – barqaror taraqqiyotimizga asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. "Темур Тузуклари". Мулку мамлакат, сипоху раият ахволидан хабардор ва огоҳ бўлиб туриш тузуки. <http://www.temurtuzuklari.uz/>
2. "Темур Тузуклари". Вазирни танлаш тузуки. <http://www.temurtuzuklari.uz/>
3. "Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонини. 2016 йил 28 декабрь., www.Uza.uz – Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. 2016 й. 14 декабрь. www.Uza.uz – Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // <https://constitution.uz/uz/clause/index>
6. Сайдов С.Ш. Тенденци гражданскоого общества в Узбекистане: некоторые взгляды на создание общественной палаты // Alma Mater, 2021. № 02. -С. 117.